

2026-yil – “Mahallani rivojlantirish
va jamiyatni yuksaltirish yili”

IJODIY PARVOZ



O'ZBEKISTON DAVLAT
SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY, IJTIMOY
GAZETASI

2026-yil yanvar-fevral № 1-2 (140) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz



SAN'AT VA MADANIYATDA HAZRAT NAVOIY TALQINI

(Turkistonda Alisher Navoiy siymosi)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis hamda O'zbekiston xalqiga yo'llagan murojaatnomasining mazmun mohiyatiga muvofiq, 2026-yilda ulug' ajdodlarimiz yorqin xotirasini ulug'lash, ularning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, ulug' bobokalonlarimiz tavallud kunlarini munosib o'tkazish maqsad va vazifa qilib belgilangan edi.

Murojaatnomadagi vazifalarning amal-

dagi ijrosi o'laroq, 2026-yil 7-fevral kuni muhtasham Turkiston anjumanlar saroyida Hazrat Mir Alisher Navoiyning 585 yillik tavallud ayyomi munosabati bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining professor-o'qituvchilari, iste'dodli talabayoishlari, magistrlar hamda doktorantlardan iborat professional jamoalar ijrosida "Navoiy gulshani – dillar bo'stoni" deb nomlangan teatrlashtirilgan konsert dasturi namoyish etildi.

Davomi 2-betda ➡

Alisher NAVOIY

G'AZAL

Ey, mug'anniy, yor bazmida navo soz aylasang,
Jon fidong o'lsun g'amim sharhidin og'oz aylasang.

Uddek kuymakligim sharh et lisoni hol ila,
Nag'mada udung lisonin sehripardoz aylasang.

O'zga olamdin xabar deb bizni tirguzdung ne tong,
Bu risolat birla gar izhori i'joz aylasang.

Rozim ar sozing lisonidin ba'id ul-fahm esa,
Anga ruhafzo unungni dog'i hamroz aylasang.

Otlanib, boshimni raxshingning ayog'i ostig'a,
Tig' birla solg'udek masti sarandoz aylasang.

Parda yop roz uzrau doxil bo'l ushbu bazm aro
Kim, erur xorij agar beparda pardoz aylasang.

Chekming lahne Navoiy ko'nglun istab, ayb emas,
Anglab o'zungni, navo ahlig'a shahnoz aylasang.

Zahiriddin Muhammad BOBUR

G'AZAL

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdin o'zga jonni dilafkor ko'rmadim,
Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim.

Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi muftalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.

Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay,
Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,
Nechaki borib eshigiga bor topmadim.

Bobur, o'zungni o'rgatako'r yorsizki, men
Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.



Surat SI tomonidan ishlangan

Boburiylar sulolasi
davri malikalari

TA'LIM-TARBIYA RIVOJIDAGI O'RNI

Tarixdan ma'lumki, Boburiylar sulolasi hukmronligi siyosiy, madaniy va ilmiy jarayonlar bilan ajralib turuvchi davr sifatida alohida o'ringa ega. Ushbu sulola tomonidan barpo etilgan davlat tizimi va ijtimoiy muhit, ilmiy-ma'rifiy faoliyatning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratdi. Natijada ilm-fan, adabiyot, tarixnavislik va ta'lim sohalarida sezilarli taraqqiyot yuz berdi.

Davomi 3-betda ➡



SAN'AT VA MADANIYATDA HAZRAT NAVOIY TALQINI

(Turkistonda Alisher Navoiy siymosi)

➡ Boshlanishi 1- betda

Mazkur tadbirning bevosita g'oya muallifi: institutning rektori, professor Nodirbek Sayfullayev, konsert dasturini sahnalashtiruvchi rejissyor: dotsent Farux Egamberdiyev bo'ldi. Ushbu teatrlashtirilgan xotira kechasini ko'tarinki ruhda, mazmunli o'tishida institutning barcha rahbar xodimlari-yu, professor-o'qituvchilaridan tortib, toki institutning talabalarigacha jonbozlik ko'rsatishdi. Ijrochilar tomonidan har bir sahna chiqishlari Hazrat Navoiyga oshufta ko'ngillar, uning ash'orlarini sog'ingan qalblar uchun ko'tarinki ruhda, olqishlar bilan qarshi olindi.

Tadbir, boshlovchilarning kirish so'zlari hamda institut talaba yoshlaridan tarkib

topgan orkestr jamoasining "Konsert valsi" (Anor Nazarov) asari bilan ochib berildi. Shundan so'ng sahnaga institut tadqiqotchisi Islombek Berdimurodovning Alisher Navoiy obrazida quyidagi monologi yangradi: "Ey yolg'izlik bilan ulfat tutingan, uzlatda ulfati hasratu kulfat bo'lgan! Axir sen mardona ijod qilding, durdona doston yaratding. Hizr kabi zulmat ichra nur sochding, elning boshidan gavharu dur sochding" kabi nomalar bilan davom ettirildi.

Institut talabalari ijrosidagi har bir sahna asarlari ijrosi (monolog, qo'shiq va h.) ular uchun katta bilim, ko'nikma va malaka oltinlarida beqiyos bilim va ilm manbai bo'lgan bo'lsa, Turkiston anjumanlar saroyi sahnasi – talabalardagi imkoniyatlarni, ularning iste'dodlarini

yanada rivojlantirishda amaliyot maydoni bo'lib xizmat qildi.

Institutda faoliyat olib borayotgan Ustoz san'atkorlarning chiqishlari tadbirga yanada fayz va shukuh bag'ishladi. Institut talabalar orkestri hamda institut professor-o'qituvchilaridan tashkil topgan "Sayqal" sozandalar ansambli jo'rligidagi O'zbekiston xalq hofizi, professor Orolmirzo Safarovning "Sumbulim" asaridagi yuqori pardalardagi nola va qochirimlari; O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Ahmadjon Dadayevning "Sayqal" ansambli jo'rligidagi "Qadi Shamshod" asari ijrosidagi o'ziga xos ijro uslubi; shuningdek, O'zbekiston xalq hofizi, professor, "Mehnat Shuhrati" ordeni sohibi Soyibjon Niyozovning Dugoh maqomidan Mo'g'ulchayi Dugoh ijrosidagi ko'hna Buxoro maqom ijrochiligiga xos "shiddat" tomoshabinlarda ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

"G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emush" radifli ruboiysi bilan kichkina Alisher obrazida gavdalangan 49-maktab 1-sinf o'quvchisi Kuranbayev Nurmuhammadning chiqishi barchaning qalbini junbushga keltirgan bo'lsa, institut professor-o'qituvchilari, zabardast sozandalar, Ustoz-muallimlar Komiljon Shermatov (qonun), Komiljon Mirzayev (g'ijjak), Yusufjon Vohidov (nay)larning o'zbek milliy sozlarida taralgan badiha (improvizatsiya) ijrolari orkestr jo'rligidagi "Favora" asarida – ham akademik ham milliy ijroning mohirona qo'llanishi to-



“Masih nafas”li shoir

Mir Alisher turk tilining o'lik jasadig'a Masih nafasi ila jon ato etdi
Husayn BOYQARO

Musulmon Sharqi she'riyati tarixini Alisher Navoiy lirikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning lirik merosi o'zigacha yaratilgan fors-tojik va turkiy she'riyatning davomi bo'lish bilan birga barcha zamonlardagi o'zbek she'riyatining eng oliy namunalari hamdir. Har ikkala tilda yuksak badiiy asarlar yarata olish qobiliyatiga ega bo'lgan hassos shoir 45 ming misraga yaqin turkiy tildagi she'rlari va 12 ming misradan ortiq fors-tojik tilidagi nazmiy merosi bilan o'sha davr she'riyati rivojiga katta hissa qo'shdi.

Navoiy badiiy-estetik merosi yosh avlod uchun zarurligini uning yaratgan asarlaridagi falsafiy mushohadalar orqali ham anglab yetish mumkin. Uning fikricha, insonning go'zalligi uning tili orqali namoyon bo'ladi.

Har qanday tilning asosi so'z, har turli fikrlar so'z vositasidagina yuzaga chiqadi, anglatiladi. Asrlar osha "G'azal mulkining sultoni", Navoiy so'zning naqadar ulug'vorligi,

beqiyosligi, ma'ni cheksizligini, ruhparvar, jonbaxsh ne'mat, ilohiyot mevasi ekanligini lisoniy zebolliklar ila isbotlab bergan mohir so'z san'atkori. Mutafakkir o'z ilmiy-ijodiy faoliyati orqali turkiy til, bugungi o'zbek adabiy tili rivojining tamal toshini qo'ydi.

Adibning quyidagi ruboiysi "so'z" ta'riflarining ichida eng mukammalidir:

**So'z durki nishon berur o'lukka jondin,
So'z durki xabar berur jonga jonondir.**

**Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin.**

Agar insonda til bo'lmaganda edi u o'lik odamdan farqlanmas edi.

Bobomiz ortiqcha gapirish nodonning ishi ekanligini ta'kidlaydi:

**Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,
Ko'p yemak birla bo'lmag'il hayvon.**

Navoiy tilga ixtiyorsizlikni elga e'tiborsizlik bilan tenglashtiradi. Shuningdek, o'z she'rlarida so'zlash odobi, nutq madaniyati, yolg'on va rost so'z haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

Tilini tiyolgan odam – donishmand oqil; so'zga erk bergan odam – beandisha va pastkash. Til shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi; til bilan dil bir bo'lsa yana yaxshi. Til bilan dil – insondagi eng yaxshi a'zoldir. Bo'stonda – gulsapsar, gulguncha va rayhonlar eng yoqimli gullardir.

Odam – tili bilan boshqa hayvonlardan

imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til – shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa – tilning ofatidir.

Yolg'onchi – haq qoshida gunohkor; xalq oldida sharmanda. Bunday nahsning beor yuzi yomonlikka o'girilgan bo'ladi; bunday nahsga botgan odam qutlug' uydan nari bo'lg'ay.

Chin so'z – mo'tabar; yaxshi so'z qisqa – muxtasar. Ko'p so'zlovchi – zeriktiruvchi; qayta-qayta gapiruvchi – aqldan ozgan. Ayb izlovchi – aybli; kishi aybini gapiruvchi – o'ziga yomonlik sog'inuvchi.

To'g'rilik bilan qarovchi – pokiza nazarli; kishilarning yaxshi tomonlarini ko'ruvchi – to'g'ri nazarli. Kimning miyasida illat bo'lsa – so'zida mantiq bo'lmaydi. Miyasi sog'lom bo'lsa, gap-so'zi yoqimli va xatosiz bo'ladi.

Davomi 3-betda ➡

2026-yil yanvar-fevral
№ 1-2 (141)

G'anijon XUDOYEV,
O'zDSMI professori v.b.,
falsafa doktori (PhD)

moshabinlarda hayrat uyg'otdi, olqishlarga sazovor bo'ldi.

Sahnada Navoiy siymosi. Uyg'un va Izzat Sultonlarning "Navoiy" dramasi-dagi "Navoiy va Guli" badiiy kompozitsiyasi Islom Berdimurodov hamda 3-kurs talabasi Mufassal Shokirovalar ijrosida otashin ishq tuyg'usining she'riy misralarda, Sharqona ibo, hayo va iffatning yuksak namunasi "Sevgi" sahnasi gavdalandiki, bunda tomoshabin qalbini bedavo – ishq dardi chulg'adi.

Institut professor o'qituvchilari tomonidan Navoiy g'azallariga bog'langan asarlar ijrosi, xususan, dotsent Azamat Sharipov ijrosida Doni Zokirov musiqasi bilan "Ko'rmadim", Usmon Berdiyev ijrosida "Ey sabo" ashulalari, shuningdek, O'zbekiston xalq hofizi, professor Beknazar Do'stmurodov shogirdlar bilan hamnafaslikda "Bo'lmish" ashulasi; O'zbekiston xalq artisti, professor Xayrulla Lutfullayevning "Munojot" ashulasi ijrosi "Sayqal" sozandalar ansambli jo'rnazovligida, institutning 1-bosqich xoreografiya ta'lim yo'nalishi talabalari raqsi bilan yanada boyidi.

Dunyoga ochilayotgan Yangi O'zbekiston, turli tillar va millatlar hamda turlicha an'analar birlashgan zaminda tinch va totuv yashayotgan turli elatlarga Hazrat Navoiy she'riyatini, uning ruboiylarini baxshida qilish, ilinish; turk, rus, ingliz, tojik, qoraqalpoq va o'zbek tillarida Navoiy g'azallarini ifodali o'qish bo'yicha Teatr san'ati fakulteti talabalari ijrosidan go'zal chiqishlar tinglandi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida "Axborot texnologiyalari" kafedrasini mudiri Aziza Qurbonova tomonidan katta ekranga moslab yaratilgan "Navoiy monologi" ko'rinishi institutning zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas odimlayotganidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy so'zlariga yozilgan barcha kuy, qo'shiq, ashula va maqom asarlari jonli ijroda namoyish etildi. Turkiston anjumanlar saroyiga tashrif buyurgan barcha tomoshabinlar go'yoki, Navoiy davridan go'zal hisslarni tuygandek taassurot oldilar. Konsert yakunidagi "Jon O'zbekiston" qo'shig'i institut professor-o'qituvchilaridan Anvar Mirzayev, Dilyoraxon Kavilova, Nasiba Sodiqova va barcha konsert ishtirokchilari tomonidan bir maqsad, bir fikr tarzida, mushtaraklikka, birdamlikka xos tarzda birga kuylandi.

“Masih nafas”li shoir

◀ Boshlanishi 2- betda

So'zi hisobsiz – o'zi hisobsiz.

So'zida parishonlik – o'zida pushaymonlik.

Yolg'onchining gapi qanchalik chiroyli bo'lsa, shunchalik qabihdir.

Buyuk shoir shu qadar e'tibor qilgan, sevirardoqlagan va “jonlantirgan” tilimizni asrab-avaylash, undan o'rinni foydalanish bugungi kundagi eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Buyuk shoir misralarida vatanparvarlik va elparvarlik tarbiyasi ham katta o'rin egallaydi.

Odami ersang, demagil odami,

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Agar odam bo'lsang, el g'amiga sherik bo'lmagan odamni inson dema. Demak, inson degan nomga sazovor bo'lishning ham o'z shartlari bor va ulardan biri – xalq dardi bilan yashash. Ushbu satrlar yuqoridagi fikrning uzviy davomi sifatida jonlanadi:

Yuz jaf o'qilsa manga,

Bir qatla faryod aylamon,

Elga qilsa bir jaf o,

Yuz qatla faryod aylaram.

Shoir agar o'ziga yuz jaf o'yetsa ham bir marta faryod aylamasligi, ammo elga bir yomonlik yetsa, yuz qatla faryod etishini yozar ekan, xalq tinchligi o'z tinchligidan ustun ekanini ta'kidlaydi.

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Shoir bobomiz g'amgin kishining ko'nglini shod qilishni Ka'bani obod qilish bilan



qiyoslaydi. Mazkur hikmatni musulmon didaktikasidagi eng yuqori axloqiy-tarbiyaviy mezon sifatida baholash mumkin.

Navoiy bobomiz tavalludining 585 yilligi ham nafaqat respublikamiz, balki butun dunyo miqyosida keng nishonlanmoqda. Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining professor-o'qituvchilari hamda talabalari ham bu ezgu ishdan chetda emaslar. 2026-yilning 7-fevral kuni Turkiston san'at saroyida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ijodiy jamoasi tomonidan buyuk shoir va mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy tavalludi-

ning 585 yilligiga bag'ishlangan “Navoiy gulshani – dillar bo'stoni” nomli teatrlashtirilgan konsert dasturi tashkil etildi. Mazkur badiiy kechada Alisher Navoiy ijodiy merosi kuy, qo'shiq, raqs va sahna chiqishlari orqali izchil va badiiy yaxlitlikda yoritildi. Bundan tashqari, professor-o'qituvchilar tomonidan Navoiy ijodiga bag'ishlangan darslar, turli tadbirlar, mushoira va she'riyat kechlar o'tkazilmoqda.

O'ylaymizki, bunday tadbirlar buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ruhini shod qiladi. Bobomizning:

**Yigitlikda yig' ilmning maxzani,
Qarilik chog'i sarf qilg'il ani.**

Zulfiya MA'RUFOVA,
“O'zbek va jahon filologiyasi”
kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim,

Orlanib so'ramagan – o'ziga zolim.

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Sango farz o'Imag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak – biayni,

Erur hammomdin nopok chiqmoq,

kabi satrlari asrlar osha bugungi kun yoshlariga nasihat tarzida aytilgan deyish mumkin. Bilim olish, kasb-hunar egallab to'kis yashash uchun barcha sharoitlar muhayyo bo'lgan bir zamonda bu imkoniyatlardan foydalanmaslik – “olam uyidan g'amnok chiqish” va “jahondan notamom o'tmak” bilan, umrni befoyda o'tkazish bilan barobardir.

Manbalarda keltirilishicha, Pushkin o'z asarlarida 21 197 ta betakror so'z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 660 ta betakror so'z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, fors, arab, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan. Binobarin, Bobur ta'biri bilan aytganda: *“Turkiy til bila to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas”*. Haqiqatdan ham, badiiy ijod olamida hali hech kim Alisher Navoiychalik hisobsiz va betakror so'z ishlatgani yo'q. Tom ma'noda aytganda, Alisher Navoiy o'zbek tiliga jon baxsh etdi, uni hayotga qaytardi. Shuning uchun ham Navoiy siymosi hamisha buyuk va barhayot.

Boburiylar sulolasi davri malikalarining TA'LIM-TARBIYA RIVOJIDAGI O'RNI

◀ Boshlanishi 1- betda

Boburiylar sulolasi davridagi ilmiy-ma'rifiy muhit imperiya hududlarida bilim va tafakkur yuksalishiga xizmat qilgan bo'lib, davrning sivilizatsion rivojida muhim bosqichni tashkil etdi. Shu bilan birga, ushbu davr ilmiy tadqiqotlar, madaniy homiylik va ta'lim tizimi orqali keyingi avlodlar uchun mustahkam intellektual poydevor yaratdi.

Hind tarixchilari boburiylarning Hindistonda ilm-fan va madaniyatni, shuningdek san'atning barcha turlarini rivojlantirishdagi hissalarini alohida ta'kidlaydilar. Boburiylar saltanati tarixiga oid ko'plab asarlar yaratilgan bo'lib, ular orasida hind tarixchisi L.P.Sharmaning “Boburiylar saltanati” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Hindistonda ilm-fan rivojida boburiylar xizmatini Sharma quyidagicha bayon etadi:

“Boburiylar hukmronligi davrida rejali va bir xil tizimdagi ta'lim o'choqlari tuzilgan bo'lib, yoshlarni o'qitish ishlari, asosan, yakka tartibda yoki madrasalarda olib borilardi. Mudarrislar va madrasalarga shahar sadrining tavsiasiga ko'ra davlat tomonidan moddiy yordam va mukofotlar berilardi. Boburiylar shohlar o'zlari yaxshi savodli bo'lganliklari uchun maorif va madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor berar edilar. Ularning hammasi olim-u ulamolar fozil-u kiromlarni avaylab, ularga ko'p g'amxo'rlik ko'rsatardilar. Shuning uchun ham saltanatda olimlarga muhtojlik sezilmagan. Ilmiy asarlar ham o'sha davrda ko'plab yaratilgan. Qolaversa, ilmiy, badiiy asarlar bir necha tillarda yaratilardi”.

Markaziy Osiyoda ikkinchi Renessansga asos solgan, Samarqand va Hirotda ilmiy tadqiqot markazlari – akademiyalar tashkil etib, ularni boshqargan temuriylardan bo'lmish boburiy podshohlar Hindiston zaminida o'z faoliyatlarini ilm-fan va madaniy taraqqiyotga homiylik qilishdan boshladilar. Buni hind tarixchisi quyidagicha bayon etadi: **“Boburiy shohlarning birinchisi bo'lmish Boburning o'zi yirik olim edi. U Dehlida madrasa qurdirib, bu ilm dargohida geografiya, matematika, va astronomiya hamda diniy fanlar o'qitilishi ta'minlandi. Uning o'g'li Xumoyun ham Dehlida madrasa tikladi. Bu paytlarda diniy ilmlar, islom nazariyasi o'qitilishiga ko'proq e'tibor berilardi”.** Hindistonni zabt etib nihoyatda qisqa mudatda, atiga 4 yil hukmronlik qilgan Bobur Dehlida madrasa qurdirib ham tabiiy, ilmiy ham diniy bilimlar olishga imkon beradigan ta'lim maskanlarini barpo etadi. Boburning vorisi

Xumoyun hukmronligi davrida Hindistonda kechgan beqaror va tahlilali, qaltis vaziyatlarda ham ilm-fan rivojiga e'tibor susaymadi.

Boburiylar sulolasi hukmronligi davrida ilm-fan va ma'rifatga bo'lgan bunday yuksak e'tibor nafaqat hukmdorlar, balki saroy muhitida faoliyat yuritgan ayollar, xususan malikalarining ham ilmiy-ma'rifiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun qulay sharoit yaratdi. Boburiylar saroyida shakllangan ilmiy va madaniy muhit malikalarining savodxon bo'lishi, ilmiy bilimlarni egallashi hamda ma'rifat homiylari sifatida yetishib chiqishiga zamin bo'ldi.

Boburiylar sulolasida malikalarga berilgan ta'lim darajasi ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini belgilabgina qolmay, ilm-fan rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Saroy ayollari tarix, adabiyot, tasavvuf, fiqh, falsafa, xattotlik hamda bir necha tillarni, jumladan fors, arab va turkiy tillarni mukammal o'zlashtirganlar. Bu esa ularning ilmiy va adabiy asarlar yaratish, shuningdek ilm ahliga homiylik qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ayollarning jamiyatdagi mavqei Islom so'fizmida muhim o'rin tutgan. So'fizm Payg'ambar alayhissalom vafotidan taxminan 100 yildan keyin VIII asr boshlarida vujudga keldi, rivojlana boshlandi. So'fizmida ayollar to'liq teng huquqlikka erishgan, hatto ba'zi barkamol ayollar “chinakam erkak” deb ham tasvirlanadilar. 1628-1658-yillarda hukmdorlik qilgan shoh Jahonning katta qizi Fotima Jahonoro so'fiylik so'qmog'ida shunchalar muvaffaqiyatga erishdiki, uning ustozlari tariqat qonunlari yo'l qo'ygan taqdirda u malikani bemalol o'zidan keyin murshidlikka taqdim etgan bo'lardi. Onasi Mumtoz begim vafotidan keyin u mamlakatdagi “birinchi xonim” ga aylandi. Jahonoro begim “Risolayi Sohibiya” (Do'stlik haqida risola) nomli asar ham yozib qoldirgani tarixdan bizga ma'lumdur. Avrangzebning qizi Zebunniso ham so'fizm hamda she'riyatga moyil bo'lgan. Islom olamining oqila, taqvodor xonimlari o'z hisoblaridan masjid, madrasalar qurdirishib dong taratganlar.

Boburiylar davlatida madaniy hayotga hissa qo'shgan ayollardan yana biri Gulbadanbegimdir. Zahiriddin Muhammad Bobur vafot etgan yili 1530-yili 26-aprelda Gulbadanbegim 8 yoshda edi. Ammo, Gulbadanbegim yoshlik chog'ida o'z ukasi Hindol Mirzo bilan Boburning katta xotini Mohim bonu tarbiyasiga topshiriladi. Shu tariqa, Mohim bonuning vafotiga qadar Gulbadanbegim valiahd shahzoda Xumoyun Mirzo bilan birgalikda tarbiyalanadi. Gulbadanbegim ikkala

Maxfuza ZIYOYEVA,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrası o'qituvchisi

onasini ham qattiq hurmat qilgan ularga mehr muhabbati cheksiz bo'lgan. Ikkala onasiga nisbatan hamisha o'zining nozik hislari va sevgisi sadoqati bilan mehr ko'rsatgan.

Gulbadanbegim avval Bobur keyinchalik Xumoyun podshoh (1530-1556) Akbarshoh (1556-1603) g'amxo'rligida umr kechirdi. Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asarida faqatgina Xumoyun davri emas balki otasi Bobur haqida ham qisman ma'lumotlar berilgan. Boisi, otasi vafot etganida malika juda yosh bo'lgan va bor ma'lumotlarni ham “Boburnoma” kitobiga suyangan holda yozgan.

“Humoyunnoma” juda ajoyib tarzda sodda va tushunarli qilib yozilgan. O'sha zamonning mashhur shoirlari Mirxond, Binoyi, Muhammad Solih kabilar asarga yuksak baho berishgan va aynan ayol kishi yozganligini asarning o'zgacha uslubda nazokat bilan yozilganligi ajralib turishini aytib o'tishgan. Asar “Boburnoma”ga o'xshash tarzda yozilgan va asar aynan “Boburnomada”gi ma'lumotlarga asoslanib yozilgan.

Malika fors tilini mukammal o'rganadi. Zahiriddin Muhammad Bobur Gulbadanbegim uchun faqatgina muhtaram padari buzrukvor bo'libgina qolmay, balki uning o'rta asr sharq tarixida chiqqan yagona tarixnavis olimi ayol bo'lib yetishib chiqishida ibrat bo'lgan ustoz hamdir. Shuning uchun ham tarixda yagona tarixchi olimi sifatida nom qoldiradi.

“Humoyunnoma” Akbarshoh buyrug'i asosida yoziladi. Asarni 83 varoqdan iborat yagona qo'lyozmasi Britaniya muzeyida saqlanmoqda, undagi voqealar tavsifini Charlz Ryo o'z katalogida berib o'tadi. 1902-yilda ingliz olimasi A.S. Beverij ingliz tiliga, 1959-yilda S.Azimjonova o'zbek tiliga tarjima qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Boburiy malikalar hukmronligi davrida ayollarning davlat va jamiyatdagi hamda ijtimoiy hayotdagi o'rni yuksak darajada bo'lgan. Albatta malikalar bunga munosib bo'lishgan va haqiqatda mamlakat tinchligi va osoyishtaligini asrashda o'zlarini munosib ko'rsatishgan, katta-katta me'moriy obidalar qurishda o'z nozik didi va aql idroki bilan ajralib turishgan. Mehr va saxovati, kamtarligi bilan xalq mehrini qozonishgan. Haqiqiy ayollarga xos xislatlar bilan hamisha ezgulikka xizmat qiluvchi ulkan ishlarga bosh-qosh bo'lishgan. Bu faxrlar va o'rnatilgan arziydigan tariximiz ayollari biz uchun iftixor tuyg'usini shakllantirishi shubhasiz.

MAQOM

SAN'ATINI O'RGANISHDAGI MUHIM JIHATLAR

Maqom san'ati ko'pchilik sharq xalqlari musiqa merosida mavjud bo'lib, milliy musiqaning asosini tashkil etadi. Maqomlar ma'lum tartibda yaratilgan turkumli musiqiy majmua bo'lib, bastakorlik ijodiyotining o'ziga xos sayqal berilgan turidir. Maqomlar keng ma'noda xalq musiqasi qomusidir. Jumladan, Shashmaqomda o'zbek va tojik xalqlari musiqasiga xos vazn xususiyatlari, sado ohanglar, doira usullari, she'riyat bilan xalq ashula yo'llarining bog'lanish qoidalariga asoslangan qator jabhalar to'laqonli ifodasini topgan. "G'iyosul lug'at" qomusining muallifi G'iyosuddin quyidagicha ta'riflaydi: "Maqom – pardai surudro go'yand" ya'ni maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi. Musiqaga doir eski manbalardan ma'lumki, maqomlarning tarixiy, nazariy va amaliy jihatlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy, Sheroziy, Marog'iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida chuqur ilmiy asosda sharhlab berilgan.

O'zbek maqom san'ati ming yillik tarixga ega. O'zbek maqomi so'zlaridagi boy ma'no barcha zamonlarda e'tirof etilgan. Yurtimizdagi "Shashmaqom", "Xorazm", "Farg'ona Toshkent" maqomlari kuyning o'ziga xos mavqei va ijrochilik yo'li bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishi va asrlar osha sayqal topishida davr, zamon, ijtimoiy voqelik muhim unsur sifatida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Har bir ilmning o'z tarixi, shakllanish va rivojlanish bosqichi bo'lgani kabi maqom san'ati ham bir necha asrlik boy tarixga ega. Maqom – yetuk va o'ziga xos og'zaki professional musiqa turkum janri bo'lib, o'rta asrlarda bastakorlar tomonidan yaratilgan. Maqom xalqimizning vujudidan sizib chiqqan ohang. Shu bois, u asrlar osha yashab kelmoqda. Afsuski, keyingi yillarda bu qutlug' va sohir san'at turiga e'tibor susaygandek edi. Biroq, Prezidentimizning "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ayni muddao bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda ta'kidlaganidek, "Biz xalqimizning noyob merosi bo'lgan maqom san'atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyo bo'ylab keng targ'ib qilish, kerak bo'lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarini tashkil etish ustida ishlashimiz kerak".

Prezidentimizning tashabbusi bilan milliy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlar milliy maqom san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rlikda yorqin ifodasini topmoqda. 2017-yil 17-noyabrda "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori esa, san'atimiz tarixidagi unutilmas voqea bo'ldi. Mazkur hujjat o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'alarini yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.


Milliy maqom san'atining rivoji yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor barcha ijodkorlarga ilhom, ijod zavqini bag'ishlamoqda. O'zbek xalqi ulkan va betakror musiqiy merosga ega. O'zbek milliy musiqa san'atining gultoji sanalgan "Shashmaqom" va uning turkumlari mumtoz she'riyatimiz bilan uyg'un holda g'oyat go'zal san'at namunasidirki, bu yuksak musiqaga jahon ahli hayrat bilan qaraydi.

Mamlakatimizda har ikki yilda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali kabi ijodiy loyihalarning o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylangan. 2003-yilda "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi", deb tan olinishi maqom san'atiga bo'lgan e'tibor va e'tirofning amaliy ifodasidir. Poytaxtimizda O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilib, hozirda samarali faoliyatini yuritishi ham ulkan voqealarning davomidir.

Biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dard-u armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda. Maqom qalblarga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi bu qadimiy merosimizni o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklar ham sehlranib, sel bo'lib tinglashida yaqqol namoyon bo'ladi. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.

Maqom xalqimizning bebaho ma'naviy merosi. Ushbu san'at rivojlanishning uzoq davrini bosib o'tgan, ko'plab san'atkor va bastakorlar uning tadrijiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shganlar. Maqom yo'nalishida inson kechinmalarining eng nozik ohanglari jamlangan. Zero, maqomni his qilish, tushunish uchun kishi yoshlikdan musiqaga mehr qo'yishi, ruhiy kamolotini ayni shu san'at bilan bog'lamoq' kerak. Ijro yo'liga kelsak, u alohida san'at, alohida madaniyat. Turkiy xalqlar maqomida umumiy jihat kuy avji va tugallanishiga alohida ahamiyat qaratilishidir. Avj pardalari balandroq, yakuniy qism dilga xush yoquvchi nafis ijro etiladi. Maqom juda yirik turkum. U boshqa musiqa asarlaridan mukammalligi, kuy va shakl tizimlariga ega ekani bilan farqlanadi. Shuning uchun maqomni ijro etayotganda, avvalo, mumtoz adabiyotdan xabardor bo'lishi zarur. Ijrochi maqom ustida ishlayotganda bir so'zning ma'nosini tushunmadimi, shu g'azalni maromiga yetkazib kuylay olmaydi, ya'ni shoir bilan hofiz o'rtasida devor paydo bo'ladi.

Maqom ajdodlardan biz avlodlarga o'tib kelayotgan boy xazina. Uni asrab-avaylash va bugungi kun yosh ijodkorlari uchun o'z aslicha hech



MIRZOBEK SATTOROV,
"Ashula va raqs" ta'lim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

bir nuqsonsiz yetkazib bera olishimiz shart. Buning uchun esa, avvalo o'zimiz bu oltin merosning tub mazmunini anglashimiz, undagi sehirli jilolar-u, qalblarni titratguvchi pardalarini aynan asl holicha tushunishimiz lozim. Maqom san'atini o'rganishda quyidagi maslahatlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

- musiqiy asar ijrochisining malakasini aniqlash joiz;

- musiqiy asar ijrochisining ovoz imkoniyatini aniqlash. Bu holatda ma'lumki, tanlangan asarning avj pardalariga ijrochi ovozinin mutanosibli mos kelishi kerak. Ya'niki, agar ijrochi ovozdagi avj imkoniyati doimiy holatda "fa" notada bo'lsa, tanlangan asar avji "lya" pardada bo'lsa, ijrochiga qiyinchilik va noqulaylik tug'diradi;

- musiqiy asarni kelib chiqishini aniqlash. Masalan: "Adolat tanovari"ni olsak. Bu musiqiy asar Adolat ismli qiz uchun uning akasi tomonidan ijro etilgan degan rivoyatlar mavjud. "Munojot" kabi asarlarning kelib chiqishi musiqiy asarning ijrosidagi holatni o'z-o'zidan namoyon etadi. Demak, musiqiy asarning kelib chiqishini bilish uni ijro etishdagi holatlarni asliga moslab beradi;

- musiqiy asardagi so'zlar va ularning ma'nosini tushunib yetish. Bunda ijro etilayotgan musiqiy asardagi so'zlarning tub ma'nosini aniqlash ijro mobaynida so'zlarga o'zgacha sehr va tabiiylik baxsh etadi. Agar ijrochi kuylayotgan ashulasidagi so'zlar ma'nosiga tushunmas ekan u holda ashula unga bo'ysunmaydi;

- musiqiy asarning asl holicha va sof ijrosiga e'tibor qaratish. Maqomni buzishga hech kimning haqqi yo'q. So'zni xato talaffuz qilish, ohangni, avjni noto'g'ri talqin qilish xalqning boy ma'naviy merosiga xiyonat qilgan bilan barobar. Maqom san'atini o'rganar ekanmiz, undagi manbalar va uni kelib chiqishi xususida chuqurlashsak, har bir qirrasi inson siyratidan olinganini anglab yetamiz. Har bir usul o'z nomiga egadir. Jumladan: Sarahbor, nasr, talqin, savt, gardun, talqin, qashqarcha, soqiynoma va hokazo. Manbalarda ko'rsatilishicha, ilk usul insonning tomir urishidan olingan. Tomirni barmoq bilan ushlab ko'rilsa, olimlar tomonidan "Usuli zarbi qadim" (Qadimiy zarb usuli) deb ataganlar.

Milliy ma'naviyat va ma'rifat yangidan ko'z ocha-yotgan bir davrda mafkuramizning rivojlantirishda, xalqimizning umrboqiy san'at tarixini keng yoritish, musiqa merosimizni o'rganish va san'atsevar xalqimizga etkazish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bu borada ustozlardan shogirdlarga o'tib kelgan xalq an'anaviy ijrochilik maktabi asosiy manba sanaladi. O'tmishda yashab ijod etgan buyuk allomalari-mizning tarixiy asarlariga murojaat qilish bilan birga ustoz san'atkorlarimiz meros qilib qoldirib ketgan durdonalarni chuqur o'rganish bizning muqaddas burchimizdir.

Tafakkur

Mening so'zim mening qo'limda (ixtiyorimda – tarj.) emas.
Shundan xafaman. Chunki do'stlarimga va'z aytgim keladi-yu,
so'zim menga bo'ysunmaydi. Xursand bo'lgan tomonim shuki,
so'zim mendan yuksakda va men uning mahkumiman...

Jaloliddin RUMIY



TAFAKKURNI

**Yuridik fanlari doktori,
professor
BOBOQUL TOSHEV bilan
suhbatimiz sahna asarlari
yaratish bilan bogʻliq
jarayonda uchrayotgan
mualliflik huquqiga oid
muammolar atrofida kechdi.**



– Ustoz, sahna asarlari uchun mualliflik huquqi qanday belgilanadi?

Bosma nashrlardan farqli oʻlaroq, sahna asari koʻpincha kitob holida nashr etilmaydi, toʻgʻridan-toʻgʻri rejissyorlar qoʻliga yetib boradi. Bunda asar muallifining mualliflik huquqi qanday himoya qilinadi? Sahnalashtirish va ijro huquqlari qanday tartibga solinadi?

– Qonunchilikka koʻra, sahna asari mualliflari ham boshqa toifadagi mualliflar bilan bir xil huquqqa ega. Sahna asarlari muallif tomonidan bevosita yozilishi yoki avval eʼlon qilingan asar (roman, qissa, esse, himoya va boshqa)lardan qayta ishlash asosida yaratilishi mumkin. Ammo har ikki holda sahna asari sifatida eʼtirof etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-apreldagi 329-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisida”gi nizomda Madaniyat vazirligi qoshida faoliyat yurituvchi badiiy kengash haqida fikr yuritilgan. Unga koʻra, har qanday muallif oʻz asarini sahnalashtirish uchun badiiy kengashga taqdim qilishi mumkin. Badiiy kengashda koʻrib chiqilgan asar sahnalashtirishga tavsiya etiladi.

Bunda vazirlik kelgusida sahnalashtirish orqali foydalanish maqsadida mualliflik huquqini olishi yoki asarni qabul qilib olishda bir martalik haq toʻlashi mumkin. Bunday kelishuv vazirlik bilan muallif oʻrtasida yozma tuziladigan shartnomada koʻrsatilishi kerak.

Agarda muallif sahna uchun foydalanishga rozilik bildirsa, belgilangan qiymatda bir martalik haq oladi. Lekin sahnalashtirilgan asardan kelgusida necha marta foydalanilsa, muallif shuncha marta mualliflik haqi olish huquqiga ega. Shu oʻrinda muallif yoki uning merosxoʻriga sahna asarining har bir foydalanilishidan qancha haq toʻlanishi kerak, degan savol tugʻiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 19-yanvardagi 10-sonli qarori bilan “Asarlar ommaviy ijro etilganligi uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari toʻgʻrisida” nizom tasdiqlangan. Bu tartib xorijiy mualliflarning asarlariga ham bir xilda tatbiq etiladi.

Sahna asaridan foydalanganda, haq olish huquqi mamlakatimizda muallif vafot etganidan keyin 70 yil, xorijiy davlatlarda esa 50 yilgacha amalda boʻladi.

– Dramaturg va rejissyor oʻrtasidagi mualliflik masʼuliyati qanday belgilanadi? Yaʼni, sahnada asar oʻzgartirilsa, qisqartirilsa yoki zamonaviy talqinda qoʻyilsa, bu mualliflik huquqining buzilishi hisoblanadimi? Baʼzan esa rejissyor yoki adabiy emakdoshlar asar sahnaga qoʻyilgach mualliflar qatoriga kiritilganini koʻramiz. Bu qonunchilik meʼyorlariga qay darajada mos keladi?

– Sahnalashtirish jarayonida muallifning ruxsatisiz asarga oʻzgartirish kiritilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Amaliyotda asar sahnalashtirilayotganda mualliflar taklif etiladi va asarga oʻzgartirish kiritib berish soʻraladi. Rejissyor yoki emakdoshlarning asarga oʻzgartirish kiritish huquqi mavjud emas. Ular, muallif rozi boʻlmasa, asar hammuallifi sifatida koʻrsatilishi ham mumkin emas.

Qonunchilikda sahnalashtiruvchi rejissyorning sahnalashtirilgan asardan kelgusida takroran foydalanishda mualliflik uchun haq olish huquqi belgilanmagan. Ammo kinofilm, multfilm, serial, novella va boshqa audiovizual asarlardan takroran foydalanishda ssenariy muallifi sifatida sahnalashtiruvchi rejissyor ham mualliflik haqi olishi mumkin.

– Koʻplab teatlarda pyesalar “moslashtirish” yoki “erkin talqin” nomi bilan sahnaga chiqariladi. Bunday holatlarda dramaturgning ruxsati talab

etiladimi? Agar muallif bilan oldindan kelishmay oʻzgartirish kiritilgan boʻlsa, qonun nuqtayi nazaridan qanday baholanadi?

– Avval kitob holida nashr etilgan yoki boshqacha shaklda eʼlon qilingan asardan sahnada foydalanish mumkin. Bunda, albatta, muallif (dramaturg)ning roziligi talab etiladi. Sahnaga asarining ssenariysini bevosita muallifning oʻzi yozib berishi yoki muallif ruxsat bersa, boshqa shaxs yozishi mumkin. Har ikkala holatda ham ular sahna asari muallifi sifatida tan olinadi. Muallifning rozilgisiz asarni inssenirovka qilib, sahnaga qoʻyishga ruxsat etilmaydi.

Agarda muallif roziligi bilan asar inssenirovka qilingan holda sahnaga qoʻyilsa va undan doimiy ravishda takrorlash shaklida foydalanilsa ham asosiy matn muallifi, ham ssenariy muallifiga haq toʻlanadi.

– Teatrlar koʻpincha dramaturglarga gonorar toʻlamaslikka intilishi sir emas, ayrim asarlarni bepul sahnalashtirish holatlari tez-tez uchrab turadi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun amaldagi qonunchilikda qanday mexanizmlar mavjud yoki boʻlishi kerak?

– Har qanday asardan xoh u tijorat, yaʼni chipta sotish orqali yoki bepul namoyish etish maqsadida foydalanilsin, muallif va ssenariy muallifiga tegishli haq toʻlanishi kerak. Haq miqdori yuqorida koʻrsatilgan nizomda aniq belgilangan.

– Koʻpincha teatr rejissyorlari yosh dramaturglar yetishib chiqmayapti, yaxshi pyesalar kam, deb nolishadi. Vaholanki, koʻplab adabiy tanlovlarda aynan yosh dramaturglarning asarlari yuqori baho olayotganini koʻrib turibmiz. Shunga qaramay, ularning pyesalari orasida sahna yuzini koʻrmayotganlari ham bor. Sizningcha, buning sababi nimada? Iqtisodiy, maʼnaviy yoki huquqiy muammolar bormi?

– Albatta, asardan sahnada foydalanish huquqi teatrlarning ishi. Buni teatr rahbarlari oʻzi mustaqil hal qiladi. Hech kim oʻz asarini teatrdan sahnalashtirishni talab qilolmaydi.

Asarlarning saviyasiga fuqarolar, mutaxassislar yoki turli muassasalar munosabat bildirishi mumkin. Mutasaddi vazirliklar asarlardan foydalanishni targʻib qilishi toʻgʻri yoʻl hisoblanadi. Davlat oʻzi yuritayotgan siyosatni yoritishga asoslangan, sifatli va mazmuni mukammal asarlardan foydalanishni qoʻllab-quvvatlaydi.

Turli muassasalar, masalan taʼlim tashkilotlari yosh mualliflar asarlaridan yaʼni, buyurtma maqsadli asar sifatida foydalanishga tavsiya etishi mumkin.

– Internet va raqamli platformalarda teatr pyesalari tarqatilishi, videolar joylanishi mualliflik huquqiga soya solmaydimi? Masalan, spektakl yozuvining onlayn eʼlon qilinishi uchun dramaturgning ruxsati talab etiladimi?

– Dastlabki shartnomada asardan qaysi maqsadda foydalanishga kelishilgan boʻlsa, faqat shu maqsadda foydalanilishi lozim. Masalan, teatrdan sahnalashtirilgan va qoʻyib borilayotgan asarni, agarda teatr bilan muallif (merosxoʻr) oʻrtasidagi shartnomada boshqacha hol nazarda tutilmagan boʻlsa, televideniye yoki radiostansiyalar tomonidan yozib olishini va ommaviy namoyish qilinishi yoxud radio orqali efirga uzatilishiga yoʻl qoʻyilmaydi.

Sahnada qoʻyilayotgan asarni muallif (dramaturg) ruxsatisiz bir vaqtning oʻzida onlayn uzatish ham mumkin emas.

– Mualliflik huquqining buzilishi holatlariga dramaturglar odatda, qanday munosabatda boʻladi?

Ular sudga murojaat qiladimi yoki bu masalalarni “ijodiy muhit” doirasida hal etish afzalmi?

– “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar toʻgʻrisida”gi qonunning 62-moddasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish, deb topiladigan holatlar sanab oʻtilgan. Xususan:

- huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquq obyektlarini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish;

- ushbu qonunda nazarda tutilgan hollarda haq toʻlash toʻgʻrisidagi talablarni buzish;

- huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma boʻyicha olingan huquqlardan oshirib yuborgan holda foydalanish;

- huquq egalari mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzish mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish deb baholanadi.

Mana shu huquqlar buzilganda dramaturg huquq-buzarlar bilan murosaga kelolmasa, buzilgan huquqini tiklash va yetkazilgan moddiy, maʼnaviy zararni undirishni soʻrab sudga murojaat qilishi mumkin. Keyingi paytlarda bunday nizoli ishlar sudda koʻrila boshlangani fikrimizni tasdiqlaydi.

– Sizningcha, teatr sohasida mualliflik madaniyatini shakllantirish uchun nima qilish kerak? Taʼlim tizimi, ijodiy uyushmalar yoki davlat siyosati bu borada qanday rol oʻynashi mumkin?

– Menimcha, madaniyat va sanʼat yoʻnalishlari boʻyicha kadrlar tayyorlayotgan taʼlim muassasalarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlar fan yoki kurs sifatida oʻqitilishi kerak.

Yoshligidan mualliflik huquqi asoslaridan xabardor boʻlgan muallif, ijrochi yoki asarlardan foydalanishni tashkillashtiruvchi shaxslar soha huquqlarini yaxshi oʻzlashtiradilar, kelgusida huquq buzilishidan tiyiladi. Oʻz huquqlarini talab qilish, himoyalash salohiyatiga ham ega boʻladilar.

– Soʻnggi savolimiz kelajak dramaturgiyasi haqida. Sunʼiy intellekt davrida dramaturgning roli qanday oʻzgaradi, mualliflik huquqi texnologik asrda qanday yangicha shakllarga ega boʻladi, deb oʻylaysiz?

– Albatta, sunʼiy intellekt yordamida teatr yoki tomosha qoʻyish bilan shugʻullanib kelayotgan shaxslar asar yaratilishini tashkil etishi, uni sahnalashtirishi, kelgusida mualliflikni daʼvo qilishi ham mumkin. Lekin inson orzu-umidlari, his-hayajoni singdirilmagan asar “koʻcha asari” boʻlib qoladi. Bunday asardan jamiyatga foyda yoʻq. Asar insonning ruhiyati singdirilgan maʼnaviy neʼmatdir. Insoniyat tafakkuri zamon bilan birga oʻzgarishi kerak. Zero, tafakkurni sunʼiylashtirib boʻlmaydi.

Muallif asaridan foydalanishni tashkil etish va uni avtonom tarzda nazorat qilib borishda yuqori texnologiyalar qoʻllanmoqda, bunda sunʼiy intellektning oʻrni beqiyos. Bugungi kunda dunyo boʻyicha kimning asaridan, qaysi shaklda, qayerda, necha marta foydalanilgani va huquq egasiga qancha haq yozilganini bilish mumkin. Inson omilisiz mualliflik huquqiga rioya etilayotganini amalga oshiruvchi xalqaro doiradagi samarali va ishonchli boshqaruvga ega platformalar ishlab turibdi. Bunday faoliyat mualliflar mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar amalga oshirib kelyapti.

– Dolzarb mavzudagi fikr-mulohazalaringiz uchun rahmat. Oʻylaymizki, bu boradagi suhbatimiz davom etadi.

Suhbatni “Ijodiy Parvoz” uchun filologiya yoʻnalishida JDPU mustaqil tadqiqotchisi Orifjon ODILOV olib bordi



BARNO RAVSHANOVA,
“Madaniyat va san’at muassasalari
faoliyatini tashkil etish hamda
boshqarish” ta’lim yo’nalishi
3-bosqich talabasi

JADIDLAR

*Sindirmoq bo’ldilar ma’naviy ongni,
Tun qilib ko’rsatdi, munavvar tongni,
Ammo uyg’oq edi, bizning jadidlar,
Ma’rifat deb urdi, baralla bongni.*

*Duch kelsa, simirib zulum zardobin,
Olamga taratib bilim oftobin,
“Ma’rifat elchisi” – degan nom bilan,
Bizlarga qoldirdi “Jadid” kitobin.*

*Yuksakga ko’tarib inson mansabin,
Yangicha tuzdilar imom masxabin,
Tafakkur qildilar dinni, dunyoni,
So’ng ochib chorladi ibrat maktabin.*

*Noming o’chsin, dedi – ey sen razolat,
Qorandani ko’rinmas oppoq adolat,
Gar peshonamizdan otsang ham bizni,
Bor xalqni etgaymiz bilimga da’vat.*

*Xalqni dengiz bildi, dedilar to’lqin,
Dengizdek mavj urib, soldilar shovqin,
Bugun xalq naznida jadidlar nomi,
Uyg’oq yuraklarda yorqindan-yorqin.*



DILOROM ABDURAZZOKOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta’lim
yo’nalishi (sirtqi) 5-bosqich talabasi

IJODXONA

*Kitoblar qo’ynida sirlar yashirin,
Har varaqlaganda dunyo ochilar,
Tafakkur bog’ining mevasin terib,
Dillarga ma’rifat nuri sochilar.*

*Bu maskan – cheksiz bir ummon kabidir,
Kitobxonlar qalbining oromgohidir,
Har lahza yangilik, har lahza kashf,
Bilim kutubxonam – ijodxonamdir.*

*Navoiy satridan olaman saboq,
Beruniy aqli ila kezaman jahon,
Kitob – zulmat ichra yonuvchi chiroq,
U bilan yorug’dir har bitta zamon.*

*Varaqlar pichirlar, so’zlar so’zlaydi,
Har bir satrida bor hikmat, ma’rifat,
Yuragim shu yerda kamol izlaydi,
Ijod ummonida suzaman har vaqt.*

*Bilim – tugallanmas, o’g’rilanmas mulk,
Uni asraguvchi qo’rg’onim mening,
Jaholat devorin qiluvchi yakson,
Kutubxona, ijodxonamdir mening!*

*Qalamim tebranar yangi fikr-la,
Oppoq sahifalar bo’lar charog’on,
Shukrona aytaman cheksiz zikr-la,
Ilm bilan baxtli, hurligim ayon.*



NILUFAR DO’STOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta’lim
yo’nalishi 2-bosqich talabasi

POSBONLAR

*Yurt ishonchi dilda omonat,
Tog’dak yuksak sizda matonat,
Ming yillarkim so’nmas diyonat,
Omon bo’ling yurt posbonlari,
Serquyosh o’lkaning mard o’g’lonlari.*

*Mardlik mudom sizlarga yo’ldosh,
Siz borsizki, ko’zlar ko’rmas yosh,
Bardoshingiz go’yoki quyosh,
Omon bo’ling yurt posbonlari,
Serquyosh o’lkaning mard o’g’lonlari.*

*Yonar doim yurtning ko’yida,
Yurar har on tinchlik o’yida,
Hamrohingiz metin iroda,
Omon bo’ling yurt posbonlari,
Serquyosh o’lkaning mard o’g’lonlari.*

*Siz posbonsiz har xonadonga,
Gullar unsin tinch ostonaga,
Ko’z tegmasin O’zbekistonga,
Omon bo’ling yurt posbonlari,
Serquyosh o’lkaning mard o’g’lonlari.*

*O’zbek elim ishonch bog’lari,
Sodda xalqim tirgak tog’lari,
Dildan o’chdi qadim dog’lari,
Omon bo’ling yurt posbonlari,
Serquyosh o’lkaning mard o’g’lonlari.*

*Asrang yurtning har giyohini,
Hur o’lkamning zar tuprog’ini,
Shodlik bezab yer osmonini,
Omon bo’ling yurt posbonlari,
Serquyosh o’lkaning mard o’g’lonlari.*



OZODA SUVONOVA,
“Madaniyat va san’at sohasi
menejmenti” mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

BUYUK SIYMOLAR

*Ibn Sino bobomiz,
Tabobatda tengi yo’q.
Qudratini tan olgan,
Olimlar-u tabiblar.*

*Al Xorazmiy bobomiz,
Ulug’ fanni yaratgan.
Algebra solib asos,
O’zi tarixda qolgan.*

*O’zbek xalqi yurtidan,
Chiqqan buyuk siymolar.
Yurtlar ichra teng qildi,
O’zbekiston nomini.*



AZIZBEK ABDULLAYEV,
“Turizm va mehmondo’stlik”
ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

ONA

*Ona – mehr daryosi, charchoq bilmaydi,
Ko’ksida quchoq bor, g’amni olmaydi,
Ko’zlari yonadi oydek tunlarda,
So’zlari nur bo’lar qalbim dunyoda.*

*Ona – duolarda tog’dag’day suyanchiq,
Yelkasi keng, ammo dardi ham ochiq,
Birgina tabassum, birgina qarash,
Yurakka kuch beradi, beradi yashash.*

*Ona – sabr, ona – mehr, ona – nur,
Ona bilan hayotim mag’rur bo’ladi,
Dunyo gar mangu sukutga to’lsa,
Onamning duosi meni qo’llaydi.*

Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishda FANDRAYZINGNING O'RNI

Bugungi kunda madaniyat va san'at muassasalarining faoliyatini kengaytirish, aholi orasida milliy madaniyatimizni keng targ'ib qilish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, xalqimizni madaniyat va san'atimizga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish va to'laqonli jalb qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Jamiyatimizda yangicha madaniyat va san'at muassasalari, xususan, madaniyat markazlari faolligi talab etilmoqda. So'nggi yillarda madaniyat sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Keng qamrovli sohamizdagi muhim o'zgarishlar ijodiy shaxslar va jamoalar uchun pul topish imkoniyatiga aylanayotgan ijodiy tadbirkorlikning rivojlanishi tufayli amalga oshmoqda.

Ijodiy tadbirkorlik – o'z iqtidori va qobiliyatlaridan kelib chiqib tashkillashtirilgan biznesning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Uning an'anaviy tadbirkorlikdan farqi shundaki, u ijodiy faoliyat va mualliflik huquqi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Masalan, qo'shiq ijro etish, raqs tushish, musiqa asboblari chalish orqali ijodiy xizmat ko'rsatishning oddiy va yorqin namunasi bo'la oladi. Ammo bugun zamonaviy texnika asrida zamon talablariga javob bera oladigan madaniy-ma'rifiy, ijodiy xizmat ko'rsatish madaniyat markazlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning xalq orasida yuqori mavqega ega bo'lishlarida mustahkam ko'prik vazifasini o'taydi. O'z navbatida, aholining talab va ehtiyojlariga zamonaviy yondashuvlar bilan javob bera olish, o'z ustida ishlovchi xodimlari jamoasini, zamonaviy texnik bazani hamda eng muhimi yetarlicha pul mablag'larini talab etadi.

Madaniyat markazlariga pul mablag'larini, ya'ni mahalliy loyihalarni amalga oshirish va bugungi kun talablariga javob beruvchi madaniyat markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun tashqi investorlarni jalb etish dunyoning rivojlangan mamlakatlarining madaniyat va san'at sohasida keng qo'llanilgan va ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan soha, ochiqroq aytganda, xayriya to'plash yoki homiylarni jalb etish hisoblanadi. Madaniyat markazlarining auditoriyasini ko'paytirish, ular uchun

foydali va manfaatli takliflarni bera olish, talabga javob bera oladigan madaniy xizmat ko'rsata olish yoki namuna ko'rsatish uchun istiqbolli reja va loyihalar madaniyat va san'at sohasiga homiylarni jalb etish uchun qurol vazifasini bajaradi. Madaniyat markazlariga homiylarni jalb etish – bu jismoniy shaxslar, xayriya jamg'armalari yoki davlat idoralari jalb etish orqali ixtiyoriy moliyaviy mablag'larni izlash va yig'ish jarayonidir. Xorij tajribasi bilan tanishar ekanmiz, bu soha allaqachon madaniyat va san'at sohasi bilan sinxronizatsiyalangan va samarali natija bermoqda.

Ko'p hollarda mablag' yig'ish atamasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlar uchun mablag' to'playdigan notijorat tashkilotlari (NTT) faoliyatiga nisbatan ishlatiladi. Qoidaga ko'ra, donorlar va homiylarga bo'linadi. Homiy xususiy shaxs ham, tashkilot ham bo'lishi mumkin, uning yordami bepul va qaytarilishi mumkin. Shuningdek, homiy haqidagi ma'lumotni tarqatish yoki ommalashtirishni o'z ichiga oladi, xayriya shartnomasi brendni eslatish uchun tuziladi. Donor – raqobat asosida tekin xayriya yoki homiylilik qilayotgan jismoniy shaxs yoki tashkilot. Homiylar – tekin xayriya qiladigan shaxslar hisoblanadi.

Madaniyat va san'at muassasalari, xususan, madaniyat markazlariga pul mablag'larini, ya'ni mahalliy loyihalarni amalga oshirish va bugungi kun talablariga javob beruvchi madaniyat markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun tashqi investorlarni jalb etish dunyoning rivojlangan mamlakatlarining madaniyat, san'at sohasida keng qo'llanilgan va ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan soha –

MO'MINMIRZO XOLMO'MINOV,
"Madaniyat va san'at menejmenti"
kafedrası dotsenti,

Xalq ijodiyoti fakulteti yoshlar bilan
ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

NILUFAR MARATOVA,

"Madaniyat va san'at sohasi menejmenti"
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti



fandrayzing – xayriya to'plash yoki homiylarni jalb etish hisoblanadi. Qolaversa, marketing bo'yicha yozilgan xorijiy asarlar va o'quv qo'llanmalar bilan tanishib chiqish anchagina foyda beradi. Bu borada, ingliz tilida juda ko'p qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, biz ularni o'rganish davomida, o'zimiz uchun yetarlicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishimiz mumkin. Misol tariqasida, 1988-yilda nashrdan chiqqan Stolper, Kerolin L. Va Xopkins, Karen Brukslar hamkorligida yozilgan "San'at va madaniyat tashkilotlari uchun muvaffaqiyatli mablag' yig'ish" (ingliz tilida "Successful Fundraising for Arts and Cultural Organizations") asarini keltirish mumkin. Ushbu kitobda mablag' yig'ish jarayonidagi bir qator amaliy qadamlar, maqsadlar, strategiyalar, hisob-kitoblar, moliyalashtirish manbalari, fondlar, xayriyalar, hukumat bilan bevosita aloqalar, turli federal agentliklar haqida ma'lumotlar beriladi. Jumladan, eng so'nggi faktlar asosida yordam beradigan kitob shubhasiz M.Rayt, B.Uolmsli, E.Simmonsning "Ijodiy va madaniy sohalarida mablag' yig'ish" (inglizchada "Fundraising in the creative and Cultural industries") deb nomlangan kitobi bo'lib, u ijodiy va madaniy tashkilotlarda mablag' yig'ishni boshqarish va rivojlantirishga muhtoj shaxslarga amaliy va strategik yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Mazkur kitobda Covid - 19 ning global miqyosdagi madaniy tashkilotlarga ta'siri ham o'rganilgan bo'lib, unda san'at menejmenti, biznes va tadbirkorlik bo'yicha tadqiqotlar bayoni keltiriladi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, respublikamizda faoliyat yuritayotgan madaniyat va san'at muassasalari, xususan, madaniyat markazlari, teatr va muzeylar faoliyatini namunali tashkil etish hamda moliyaviy sharoitini mustahkamlash uchun bugun jahonning rivojlangan davlatlari sinovidan o'tgan fandrayzing va zamonaviy marketing faoliyatini tashkil etish maqsadga muvofiq.

KREATIV TAFAKKUR va qadriyatlar transformatsiyasi

XXI asrda insoniyat sivilizatsiyasi yangi bosqich – raqamli davrga qadam qo'ydi. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual muhit va global kommunikatsiya tarmoqlari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, balki inson tafakkuri va qadriyatlar tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Shunday bir sharoitda inson tafakkurining markaziga kreativlik, ya'ni yangicha fikrlash, noodatiy yechim topish, original yondashuv orqali muammolarni hal etish qobiliyati chiqdi. Shu bilan birga, bu jarayon an'anaviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va madaniy identikning qayta talqin etilishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda raqamli transformatsiya inson faoliyatining barcha sohalariga singib kirar ekan, tafakkurning kreativlashuvi bilan bir qatorda, axborot oqimining haddan ziyod kuchayishi, virtual reallik, iste'molchi madaniyatining ustuvorligi kabi holatlar ma'naviy qadriyatlar transformatsiyasini ham tezlashtirmoqda. Shu sababli, zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar ta'sirida shakllanayotgan kreativ tafakkur va qadriyatlar tizimini falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilish dolzarb ilmiy zaruratga aylanmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, inson tafakkuri va qadriyatlar o'zgarishining jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligida namoyon bo'ladi. Raqamli davrda axborot texnologiyalari inson ongi va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, inson faoliyatida kreativ fikrlash, erkin tanlov, o'zini ifoda etish, raqamli madaniyat elementlari ustuvor o'rin egallamoqda. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar insoniyatning ma'naviy, axloqiy va estetik qadriyatlari bi-

lan qanday uyg'unlashayotgani masalasi ochiq qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, dissertatsiya tadqiqotining maqsadi – raqamli davrda kreativ tafakkurning shakllanishi va qadriyatlar transformatsiyasining falsafiy mohiyatini ochib berish, ularning o'zaro ta'sirini tahlil qilish va jamiyatning ma'naviy taraqqiyotidagi o'rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy vazifalarni hal etilishi nazarda tutiladi:

- ✓ raqamli jamiyatda kreativ tafakkurning paydo bo'lish omillari va nazariy asoslarini aniqlash;
- ✓ qadriyatlar tizimining raqamli madaniyat sharoitida o'zgarish mexanizmlarini tahlil qilish;
- ✓ raqamli tafakkur va kreativlikning inson ma'naviy olamiga ta'sirini falsafiy jihatdan asoslash;
- ✓ O'zbekiston jamiyatida raqamli muhitda shakllanayotgan yangi qadriyat yo'nalishlarini o'rganish;

✓ raqamli davrda qadriyatlar muvozanatini saqlash hamda kreativ tafakkurni ma'naviyat bilan uyg'unlashtirish yo'llarini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda raqamli davr kontekstida kreativ tafakkur va qadriyatlar transformatsiyasi masalasi bir butun falsafiy konsepsiya sifatida yoritiladi. Shu bilan birga, tadqiqot inson tafakkuridagi kreativlik fenomenini faqat psixologik yoki ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki ma'naviy va aksiologik (qadriyatga oid) jarayon sifatida tahlil etadi.

Kutilayotgan ilmiy natijalar quyidagilardan iborat:

- ✓ kreativ tafakkur va qadriyatlar o'zgarishining nazariy-falsafiy modeli ishlab chiqiladi;
- ✓ raqamli davrda inson tafakkuri, ma'naviyat va texnologiyalar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik asoslanadi;
- ✓ raqamli madaniyat sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish mexanizmlari taklif etiladi;
- ✓ O'zbekiston jamiyatida raqamli transformatsiya fonida shakllanayotgan yangi ijtimoiy-ma'naviy tendensiyalar tahlil qilinadi;
- ✓ raqamli tafakkur va kreativlikni ma'naviy barqarorlik bilan muvofiqlashtirishga doir konseptual yondashuv ishlab chiqiladi.



DILNOZA KARIMOVA,
"Madaniyat va san'at
sohasi menejmenti"
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Xulosa qilib aytganda, "Bugungi raqamli davrda kreativ tafakkur va qadriyatlar transformatsiyasi" mavzusidagi tadqiqot nafaqat zamonaviy falsafiy muammolarni yoritadi, balki O'zbekistonning raqamli modernizatsiya jarayonida inson omilining ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga ilmiy asos yaratadi. Mazkur dissertatsiya natijalari ta'lim, madaniyat siyosati, axborot texnologiyalari sohasida ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

TO'RTINCHI SANOAT INQILOBI: madaniyat qutqaradi(mi?!)

Bugungi globallashuv asri – to'rtinchi sanoat inqilobi davrida butun insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagini tahlil qilish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Buyuk adib Chingiz Aytmatovning "Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori" asarida shunday jumlar yozilgan edi: **"Insoniyat tarixi mobaynida timoqlab to'plangan ma'naviy boylik kundan-kunga qadrsizlanib borayotir. Shafqatsizlik va berahmlik ildiz otib borayotir, yaxshilik va mehr shafqat o'zining tabiiy bandargohidan kundan-kun uzoqlashib ketayotir"**. Darhaqiqat, bugunning eng dolzarb masalalaridan biri odamzodning insoniy qadr-qimmatini asrab-avaylash bo'lib qoldi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bizning davrgacha uchta yirik sanoat inqilobi yuz berdi. Birinchi sanoat inqilobi taxminan 1760–1840-yillarni o'z ichiga olib, temiryo'llar qurilishi va bug' mashinasi kashf qilinishi turtki bo'lgan bu jarayon mexanik ishlab chiqarishni boshlab berdi. XIX asr oxiri XX asrda boshlangan, ikkinchi sanoat inqilobi elektr quvvati va yig'uv liniyasi yaratilishi bilan ommaviy ishlab chiqarish imkonini yaratdi. Uchinchi sanoat inqilobi 1960-yilda boshlandi va yarim o'tkazgichlar, markaziy kompyuter, shaxsiy kompyuter va internet rivojlanishi bilan avj olganligi sababli raqamli inqilob yoki kompyuter inqilobi deb ham ataladi. Va nihoyat yangi asr boshida yuzaga kelgan to'rtinchi sanoat inqilobi esa, raqamli inqilobga tayanib, keng tarqalgan va tezkor internet, kichikroq, arzonroq va kuchliroq sensorlar, sun'iy intellekt bilan tavsiflanadi. Bugungi inqilobiy tezkor o'zgarishlar, uning afzalliklari barchamizga ma'lum bo'lganidek, ular yuzaga keltirayotgan ko'plab muammolardan ham xabardor bo'lishimiz va jamiyat a'zosi sifatida ularga yechimlarni izlashimiz zarurdir.

Sharqda azaldan insoniylik tushunchasi yuqori ahamiyat kasb etgani bois, ko'plab allomalar asarlarida o'z aksini topgan. Ularda insonning jismoniy yetukligi bilan birga ma'naviy yetuklikning

muhimligi keng qamrovli tahlil qilingan. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy asarlaridagi bosh g'oya – komil inson tushunchasining o'ziyoq ushbu masalalarning nafaqat bugun, balki insoniyat paydo bo'lganidan buyon qanchalik dolzarb bo'lib kelayotganini ko'rsatadi.

Bugunga kelib o'zaro muloqot real emas, ijtimoiy tarmoqlarga ko'chgan, ovqat vaqtida taomlarni mazasi emas, internet sahifalarida qanday ko'rinishi muhim, Oila davrasi degan tushunchalar ham yo'qolib, transmilliy oila tushunchalari paydo bo'lmoqda. Bu kabi jarayonlar insoniyatning asliyatiga ta'sir qilmasligiga hech kim kafolat bermaydi. 2010-yilda Michigan universitetida o'tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, kollej o'quvchilari orasida o'z-galar hissiyotlarini tushunish qobiliyati 40 foizga pasaygan va bu pasayish davomli bo'lib borayotganligi aniqlangan. Bugun yoshlar urush, falokat, zo'ravonlik, fojiani har kuni ko'radilar. Buning oqibatida, dastlab achinish keyin befarqlik, so'ngra hissiy o'chish. Bu kabi tadqiqotlarning maqsadi olingan ko'rsatkichlardan foydalanib, masalaga yechim topish hisoblanadi. Bu masalalar juda murakkab bo'lib, ularning ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy oqibatlarini tushunib yetishimiz lozim.

Olimlar biz texnologiyaga emas, texnologiya bizga xizmat qilishi kerakligini

anglab yetish – to'rtinchi sanoat inqilobining farovon hayotimizga zarar emas, foyda olib kelishini ta'kidlamodalar. Ammo buni anglash uchun bizga nima yordam beradi?! Bizni kelajakda kutib turgan "texnokratik diktatura", "insonsiz taraqqiyot"dan nima qutqaradi, jamiyatni ijtimoiy parchalanish va axloqiy beqarorlikdan nima asrab-avaylaydi?! Texnologiya insonni insoniylik va erkin irodadan mahrum qilishiga nima to'siq bo'ladi?! Albatta madaniyat! Madaniyat faqat an'ana, marosim va folklor emas, madaniyat bu qadriyatlar, axloq, til, ong va tafakkurdir. Madaniyat bu insonning texnologiyaga munosabatini belgilovchi omil, u – immunitet! Texnologiya neytral tushuncha bo'lib, uni yaxshilikka ham, yomonlikka ham ishlatish mumkin. Har qanday texnologiyadan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari bor albatta.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, madaniyat insonni texnologiyadan emas, balki texnologiyani insoniy mezonlarsiz ishlatishdan qutqaradi. Madaniyat – bu axloqiy chegara, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini tiyish, boshqalarni hisobga olish qobiliyati. Madaniyat yo'q jamiyatlarda kuch axloqdan ustun bo'lishi, samaradorlik inson qadridan balandda turishi tabiiy hol. Zero, muammolarni yechish uchun jamiyatda ijtimoiy jipslikni mustahkamlash katta zaruriyat va bu biz madaniyat xodimlari zimmasidagi vazifadir. Chunki madaniyat – jamiyatni ich-ichidan birlashtiruvchi, inson qalbiga ta'sir etuvchi eng kuchli vositadir. San'at, adabiyot, teatr, musiqa, urf-odat va an'analar orqali odamlar bir-birini yaxshiroq anglaydi, o'zaro hurmat va bag'rikenglik shakllanadi. Madaniyat xodimlari aynan shu jarayonda turli ijtimoiy qatlamlar, avlodlar va dunyoqarashlar o'rtasida muloqot va hamjihatlik muhitini yaratishi, jamiyatda "men" emas, "biz" degan tushunchani mustahkamlashi lozim.

Shuningdek, madaniyat sohasi vakillari jamiyatdagi dolzarb masalalarni san'at va ma'rifat vositasida ko'tarib chiqib, odamlarni befarqlikdan faol fuqarolik pozitsiyasiga o'tishga undashi mumkin. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda madaniyat xodimlarining mas'uliyati yanada ortadi, chunki kelajakdagi ijtimoiy jipslik aynan bugungi yosh avlodning qarashlari va qadriyatlariga bog'liq. Demak, inson tushunchasi birlamchi bo'lgan barqaror kelajakni yaratish har birimizning ezgu maqsadimizga aylanishi muhimdir.



E'ZOZA KARIMOVA,
"Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

MADANIYAT XODIMINING JAMIYATDAGI MAS'ULIYATI

Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasi jamiyat ma'naviyatining ko'zgusi hisoblanadi. Madaniyat xodimi ayniqsa, san'atkor – xalq qalbiga, ongiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi shaxsdir. Shuning uchun ham bugungi davrda madaniyat xodimidan nafaqat iste'dod, balki yuksak mas'uliyat, keng dunyoqarash va mustahkam ma'naviy pozitsiya talab etilmoqda.

Madaniyat xodimi qanday bo'lmog'i lozim? Avvalo, madaniyat xodimi o'z kasbini chin dildan sevuvchi, unga sadoqat bilan yondashuvchi inson bo'lishi kerak. U jamiyatda o'zini tutishi, so'zi, kiyinish madaniyati va xulqi bilan boshqalarga namuna bo'la olishi lozim. Chunki san'atkor sahnadagina emas, balki kundalik hayotda ham tomoshabin nigohida bo'ladi. Madaniyat xodimi yurtiga, xalqiga xizmat qilishni asosiy maqsad deb bilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi hamda yosh avlod tarbiyasida san'at orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishi zarur. Zero, zamonaviy va mas'uliyatli san'atkor bugungi globallashuv davrida zamon bilan hamnafas bo'lishi shart. Biroq bu jarayonda milliylikni yo'qotmaslik, yengil-yelpi mashhurlik ortidan quvmasslik muhim. San'atkor turli aldovlarga, ommaviy shov-shuvlarga va asossiz xurujlarga aldanib qolmasligi, o'z yo'li va prinsiplariga sodiq bo'lishi lozim.

Yurtboshimiz tomonidan madaniyat va san'at sohasiga qaratilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yaratilayotgan sharoitlar, san'atkorlar zimmasiga

yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan ushbu imkoniyatlarga munosib javob berish, sifatli ijod mahsullarini yaratish har bir madaniyat xodimining burchidir.

Mualliflik ijrosi va ijodiy mas'uliyat san'atkor mualliflik qo'shiqlarini yaratishda so'z va ohang uyg'unligiga, mazmunning tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Har bir qo'shiq xalq qalbiga yetib borishi, unda ezgulik, vatanparvarlik, muhabbat va hayotga ijobiy munosabat aks etishi kerak.

Ijodkor uchun eng muhim jihatlardan biri – tadbir tanlamasdan, har bir chiqishga birdek mas'uliyat bilan yondashishdir. Katta sahna yoki chekka hududdagi oddiy tadbir bo'ladimi, san'atkor uchun har bir tomoshabin aziz va hurmatga loyiq. Aslida, sahna madaniyati san'atkorning yuzi hisoblanadi. Sahnada o'zini tutish, libos tanlash, mikrofon bilan ishlash, jonli ijro madaniyati, bularning barchasi tomoshabin didini shakllantiradi. Shu bilan birga, kreativ fikrlash, yangicha yondashuvlar san'atkorning boshqalardan ajratib turadi. Biroq kreativlik ham ma'naviyat va odob doirasida bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi madaniyat xodimi – bu faqat ijrochi emas, balki jamiyat ma'naviy hayotining faol targ'ibotchisidir. U o'z kasbiga muhabbat bilan yondashib, davlat ishonchini oqlashi, xalq e'tiboriga munosib bo'lishi kerak. Ana shundagina san'at chin ma'noda tarbiya vositasiga, madaniyat esa jamiyatni yuksaltiruvchi kuchga aylanadi.



TOXIRBEK HAMIDOV,
"Menejment" (sirtqi)
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Muassis: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Bosh muharrir Baxtiyor YAKUBOV		Tahrir hay'ati: Hamdam ISMOILOV, Oybek DAVLATOV Muharrir: Dilnoza QURBONOVA Sahifalovchi: Abdug'ani SODIQOV	Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy. Telefon: (71) 230-28-03. (71) 230-28-13.	O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq. Gazeta 27.02.2026-yilda topshirildi. Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.
		www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz	Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda	